



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## FINTECH YECHIMLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGINING KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

**Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich**  
*Uzsanoatqurilishbank ATB Korporativ Markaz*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisda fintech yechimlar va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikning kichik tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli to'lov tizimlari, onlayn kreditlash platformalari va moliyaviy texnologiyalar orqali tadbirkorlarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengayishi asoslab beriladi. Shuningdek, bank va fintech integratsiyasi natijasida xizmatlar tezligi, qulayligi va samaradorligi oshishi ko'rsatib o'tiladi. Mazkur hamkorlik kichik biznesni moliyalashtirishni soddalashtirib, iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.*

**Kalit so'zlar:** *fintech, tijorat banklari, kichik tadbirkorlik, raqamli to'lovlar, onlayn kreditlash, moliyaviy texnologiyalar, bank integratsiyasi*

**Аннотация.** *В данной работе анализируется роль сотрудничества финтех-решений и коммерческих банков в развитии малого предпринимательства. В исследовании рассматривается влияние цифровых платежных систем, онлайн-кредитования и финансовых технологий на расширение доступа предпринимателей к финансовым ресурсам. Подчеркивается, что интеграция банков и финтех-компаний повышает скорость, удобство и эффективность финансовых услуг. Данное сотрудничество упрощает финансирование малого бизнеса и выступает важным фактором стимулирования экономической активности.*

**Ключевые слова:** *финтех, коммерческие банки, малый бизнес, цифровые платежи, онлайн-кредитование, финансовые технологии, банковская интеграция*

**Annotation.** *This thesis examines the role of collaboration between fintech solutions and commercial banks in the development of small entrepreneurship. The study explores how digital payment systems, online lending platforms, and financial technologies expand entrepreneurs' access to financial resources. It highlights that the integration of banks and fintech companies increases the speed, convenience, and efficiency of financial services. Such cooperation simplifies small business financing and serves as a key driver of economic activity and sustainable business growth.*

**Keywords:** *fintech, commercial banks, small business, digital payments, online lending, financial technologies, bank integration*

### **Kirish**

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarni qamrab olmoqda va bu jarayon ayniqsa moliya sektorida yaqqol namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar, ya'ni fintech yechimlarining jadal rivojlanishi bank tizimi faoliyatiga sezilarli o'zgarishlar kiritdi. An'anaviy bank xizmatlari tobora raqamli



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



platformalar bilan integratsiyalashib, yangi moliyaviy ekotizim shakllanmoqda. Ushbu jarayonda fintech kompaniyalar va tijorat banklari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim segmenti bo‘lib, u yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, kichik biznes subyektlari ko‘pincha moliyaviy resurslarga kirish, kredit olish va moliyaviy xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladi. Aynan shu nuqtada fintech yechimlar va tijorat banklari hamkorligi muhim yechim sifatida maydonga chiqadi. Mazkur tezisning asosiy maqsadi fintech yechimlar va tijorat banklari hamkorligining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilish, ushbu hamkorlikning afzalliklari va muammolarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Fintech va bank tizimining integratsiyasi: nazariy asoslar**

Fintech — bu moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvdir. U mobil to‘lovlar, onlayn kreditlash, blokcheyn texnologiyalari, sun‘iy intellekt va big data kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Fintech kompaniyalarining asosiy ustunligi — tezkorlik, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvdir. Tijorat banklari esa moliyaviy tizimning asosiy instituti sifatida ishonchlilik, kapitallashuv va keng mijozlar bazasiga ega. Shu sababli, fintech kompaniyalar va banklar o‘rtasidagi hamkorlik o‘zaro manfaatli hisoblanadi. Banklar fintech texnologiyalaridan foydalanib xizmatlarini modernizatsiya qiladi, fintech kompaniyalar esa bank infratuzilmasi va litsenziyalaridan foydalanadi. Natijada, “bank + fintech” modeli shakllanib, u mijozlarga yanada tezkor, arzon va qulay xizmatlarni taqdim etadi. Bu ayniqsa kichik tadbirkorlik uchun muhim, chunki ular tezkor moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj sezadi.

### **Kichik tadbirkorlik uchun fintech yechimlarning ahamiyati**

Kichik tadbirkorlik subyektlari ko‘pincha resurslar yetishmasligi, moliyaviy xizmatlarga kirish cheklanganligi va byurokratik jarayonlar tufayli rivojlanishda qiyinchiliklarga duch keladi. Fintech yechimlar ushbu muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Birinchidan, raqamli to‘lov tizimlari kichik biznes uchun muhim infratuzilma yaratadi. Masalan, mobil ilovalar orqali to‘lovlarni qabul qilish tadbirkorlar uchun naqd pulga bog‘liqlikni kamaytiradi va operatsiyalarni tezlashtiradi. Bu esa mijozlar oqimini oshiradi. Ikkinchidan, onlayn kreditlash platformalari kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtiradi. An‘anaviy bank kreditlaridan farqli ravishda, fintech platformalar orqali kredit olish jarayoni tez va soddalashtirilgan bo‘ladi. Uchinchidan, fintech yechimlar orqali kichik biznes subyektlari o‘z moliyaviy faoliyatini raqamli tarzda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi va moliyaviy nazoratni kuchaytiradi.

### **O‘zbekiston misolida fintech va bank hamkorligi**

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda moliya sektorining raqamli transformatsiyasi izchil amalga oshirilmoqda va bu jarayonda fintech kompaniyalar hamda tijorat banklari o‘rtasidagi hamkorlik strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat tomonidan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi doirasida moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu fintech ekotizimining rivojlanishiga kuchli turtki



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



bermoqda. Natijada, bank xizmatlari an'anaviy modeldan platformaviy modelga o'tib, mijozlarga yo'naltirilgan, tezkor va moslashuvchan xizmatlar shakllanmoqda.

Amaliy jihatdan qaralganda, O'zbekistonda Click, Payme, Uzum kabi to'lov tizimlari tijorat banklari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritib, yagona moliyaviy infratuzilmaning muhim elementiga aylangan. Ushbu platformalar orqali kichik tadbirkorlar nafaqat to'lovlarni qabul qilish, balki hisob-kitoblarni yuritish, xizmatlar uchun avtomatik billing tizimlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, kichik savdo do'konlari, kafelar va xizmat ko'rsatish subyektlari QR-kod asosida to'lovlarni qabul qilishni keng joriy etgan bo'lib, bu naqd pulsiz iqtisodiyot ulushining oshishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, fintech va bank hamkorligi doirasida POS-terminal va QR-ekvayring xizmatlari sezilarli darajada soddalashtirildi. Oldin tadbirkor uchun bank bilan shartnoma tuzish, qurilma o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish jarayoni murakkab bo'lgan bo'lsa, hozirda mobil ilovalar orqali bir necha bosqichda ushbu xizmatlardan foydalanish mumkin. Bu esa kichik biznes uchun "entry barrier"ni pasaytirib, yangi tadbirkorlarning bozorga kirishini osonlashtirmoqda.

Shuningdek, onlayn kreditlash va mikrofinanslash yo'nalishida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Tijorat banklari fintech kompaniyalar bilan hamkorlikda skoring tizimlarini avtomatlashtirib, kredit ajratish jarayonini tezlashtirmoqda. Masalan, ayrim bank ilovalari orqali tadbirkorlar bir necha daqiqa ichida aylanma mablag' uchun mikroqarz olish imkoniyatiga ega. Bu ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun muhim, chunki ular ko'pincha tezkor likvidlikka ehtiyoj sezadi. Shu orqali biznesning uzluksiz faoliyati ta'minlanadi va operatsion risklar kamayadi. Yana bir muhim jihat — bu fintech yechimlar orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy shaffofligi oshib borayotganidir. Raqamli tranzaksiyalar orqali barcha moliyaviy operatsiyalar qayd etilishi natijasida tadbirkorlarning kredit tarixini shakllantirish osonlashadi. Bu esa kelajakda yirikroq moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, soliq tizimi bilan integratsiya hisob-kitoblarning shaffofligini oshirib, norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

### **Afzalliklar va iqtisodiy samaradorlik**

Fintech va tijorat banklari hamkorligining eng muhim afzalliklaridan biri — xizmat ko'rsatish tezligi va operatsion samaradorlikning keskin oshishidir. Raqamli platformalar orqali moliyaviy xizmatlar 24/7 rejimida taqdim etilishi kichik tadbirkorlar uchun vaqt resurslarini tejash imkonini beradi. Bu esa biznes jarayonlarini uzluksiz davom ettirishga xizmat qiladi. Masalan, an'anaviy bank tizimida bir necha kun talab etiladigan operatsiyalar fintech platformalar orqali bir necha daqiqada amalga oshirilmoqda. Ikkinchi muhim afzallik — tranzaksiya va operatsion xarajatlarning kamayishidir. Raqamli xizmatlar orqali vositachilar soni qisqaradi, hujjatlashtirish jarayonlari avtomatlashtiriladi va inson omili ta'siri kamayadi. Natijada kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy operatsiyalar arzonlashadi, bu esa ularning umumiy rentabelligini oshiradi. Uchinchi jihat — moliyaviy inklyuziya darajasining oshishidir. Fintech yechimlar geografik va institutsional cheklavlarni kamaytirib, hatto chekka hududlardagi tadbirkorlarni ham moliyaviy tizimga jalb qiladi. Bu



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



esa iqtisodiy faollikni hududlar kesimida muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fintech va bank hamkorligi orqali ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making) imkoniyatlari kengaymoqda. Big data va sun'iy intellekt asosida tadbirkorlarning moliyaviy xulq-atvori tahlil qilinib, ularga moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlar taklif etilmoqda. Bu esa xizmatlarning individualizatsiya darajasini oshiradi.

### **Muammolar va cheklovlar**

Shu bilan birga, fintech va bank hamkorligining rivojlanish jarayonida bir qator tizimli muammolar ham mavjud. Eng dolzarb masalalardan biri — kiberxavfsizlik tahdidlaridir. Raqamli moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi bilan birga firibgarlik, phishing va ma'lumotlar o'g'irlanishi kabi xavflar ham ortmoqda. Kichik biznes subyektlari ko'pincha axborot xavfsizligi bo'yicha yetarli bilim va texnik vositalarga ega emasligi sababli ushbu tahdidlarga nisbatan zaif hisoblanadi. Ikkinchi muammo — raqamli savodxonlik darajasining pastligidir. Ayniqsa, yoshi katta yoki an'anaviy biznes yuritayotgan tadbirkorlar uchun fintech platformalardan foydalanish murakkab bo'lishi mumkin. Bu esa raqamli xizmatlarning ommalashuviga to'sqinlik qiladi. Uchinchi muammo — normativ-huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligidir. Fintech sohasining tez rivojlanishi mavjud qonunchilik bazasidan oldinda ketmoqda, bu esa ayrim hollarda tartibga solishdagi bo'shliqlarni yuzaga keltiradi. Natijada, fintech kompaniyalar faoliyati va banklar bilan hamkorlik jarayonida huquqiy noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim cheklovlardan biri hisoblanadi. Internet tezligi, server infratuzilmasi va texnik xizmat ko'rsatish sifati barcha hududlarda bir xil emas.

### **Rivojlanish istiqbollari va tavsiyalar**

Kelgusida fintech va bank hamkorligini yanada rivojlantirish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Birinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonini jadallashtirish lozim. Xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn va open banking texnologiyalaridan keng foydalanish bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Ikkinchidan, kichik biznes uchun moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Har bir tadbirkorning ehtiyojidan kelib chiqib individual yechimlar taklif etilishi kerak. Uchinchidan, raqamli va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli dasturlarni amalga oshirish zarur. Bu orqali tadbirkorlarning fintech xizmatlaridan samarali foydalanish darajasi oshadi. To'rtinchidan, kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va foydalanuvchilarni muntazam ravishda xabardor qilish muhimdir. Beshinchidan, davlat tomonidan fintech ekotizimini qo'llab-quvvatlash, startaplar uchun qulay muhit yaratish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, fintech yechimlar va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlik O'zbekiston sharoitida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim drayveriga aylanmoqda. Ushbu hamkorlik orqali moliyaviy xizmatlar yanada tezkor, qulay va samarali bo'lib, tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, to'lov tizimlari, onlayn kreditlash va raqamli moliyaviy boshqaruv vositalari kichik biznesning moliyaviy



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish va fintech ekotizimini yanada rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash mumkin. Kelajakda bank va fintech integratsiyasi yanada chuqurlashib, kichik biznesni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

### Foydanailgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida: Farmon. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlarini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi va moliya asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 336 b.
4. Xudoyberdiyev A.A. Fintech va raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Fan, 2022. – 280 b.
5. Ismoilov B.S. Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 300 b.
6. <https://cbu.uz>
7. <https://my.gov.uz>
8. <https://mitc.uz>